



SO‘ZLARNING NUTQIY FAOLIYAT TURLARI BILAN BOG‘LIQ RAVISHDA ISHLATILISHI

Tuzikenova J.A.

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Tayanch so‘zlar: nutqiy faoliyat, so‘z, faol, nofaol, matn, o‘qib tushunish, lug‘at, o‘qish, savodxonlik, metodik, nazariy, bilim, ko‘nikma, darslik.

Ключевые слова: речевая деятельность, слова, активная, неактивная, текстовая, понимание прочитанного, словарь, чтение, грамотность, методическая, теоретическая, знания, умения, учебник.

Key words: speech activity, words, active, inactive, textual, reading comprehension, dictionary, reading, literacy, methodical, theoretical, knowledge, skills, textbook.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiya sirasiga kiruvchi nutqiy faoliyat turlarini (tinglab tushunish, so‘zlash (gapirish), o‘qish, yozishni) shakllantirish o‘ziga xoslik kasb etadi. So‘z boyligining asosiy qismi (umumxalq so‘zlari) to‘rtala nutqiy faoliyat turida ishlatila olsa, muayyan qismi (oz qismi) ayrim-ayrim olingan faoliyat turlari bilan bog‘liq ravishda qo‘llanadi.

Ma‘lum nutq jarayonidan foydalanadigan jamiyat a‘zosi, ya‘ni katta yoshli kishimi, kichik yoshli bolami o‘z milliy til boyligi hisoblangan mazkur til so‘z zahirasidan kundalik faoliyatida foydalanadi. Demakki, har bir jamiyat a‘zosi yoshidan qat‘i nazar o‘z ona tili boyligi hisoblangan so‘z zahirasini egallashga harakat qiladi. Har bir kommunikant boshqalarnikidan qisman farq qilishi mumkin bo‘lgan shaxsiy so‘z zahirasini o‘zlashtiradi. Har bir kishidagi shaxsiy faol va nofaol so‘z zahirasi bevosita va bilvosita ona tilini ilmiy-amaliy, nazariy, shuningdek, hayotiy ehtiyojlar, fan, texnika, ilmiy, nazariy manbalarni o‘rganish jarayonida shakllanadi.

So‘zlar turli sabablarga ko‘ra nutqda faol va nofaol qo‘llanadi. O‘quvchilar nutqiy faoliyat turlariga ko‘ra so‘z boyligi zahirasining faol va nofaol qismlarga bo‘linishining bir qancha sabablari bor. Bu sabablarni tadqiqot talabidan kelib chiqib, o‘tkazilgan eksperimentlar asosida quyidagicha belgilaymiz: 1) sosial (ijtimoiy) sabablar; 2) psixologik sabablar; 3) metodik sabablar.

Ona tili o'qitish metodikasi va psixologiyasida o'quvchilar so'z boyligi ikki qismga ajratiladi: faol so'z boyligi zahirasi hamda nafaol so'z boyligi zahirasi. Faol va nafaol so'z boyligi o'rganilgan leksikani faollashtirish darajasi, nutqiy faoliyat turlari (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish) taqozosi bilan yuzaga keladi. Quyida ana shu nutqiy faoliyat turlari bilan bog'liq ravishda egallanadigan so'z boyligi xususida qisqa fikr yuritamiz.

Matn bilan bog'liq ravishda o'qish jarayonida egallanadigan so'z boyligi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida matnlarni o'qib tushunish o'qish texnikasidan keyin amalga oshiriluvchi bosqich hisoblanib, ushbu bosqichning samaradorligi so'z boyligining etarli darajada to'planishiga bog'liq. Chunki ilmiy maqola tipidagi matnlar mehnat sohalari nuqtai nazaridan integrativ xarakterga ega. Bu matnlar turli fan sohalarini qamrab oladi. Shuning uchun ularda kasbiy leksikadan tashqari, sohaviy leksika ham ishtirok etadi. O'quvchi bugun bir ilm-fan sohalari bo'yicha matnda qo'llangan so'zlar bilan tanishsa, ertasiga boshqa bir soha leksikasiga duch keladi. Bunday almashinishlar sharoitida har gal katta miqdordagi tanish va notanish so'zlar ustida ishlanadi. Notanish so'zlarning ko'pligi matn mazmunini tushunish ishini qiyinlashtirib turadi.

Ilmiy maqola tipidagi matnlarda qanday so'zlar ishtirok etadi? Birinchi navbatda kitobiy so'zlar deb javob berish mumkin. Kitobiy so'zlar passiv bo'lib, o'quvchilarning og'zaki nutqida deyarli qo'llanmaydi. Bunday passiv so'zlar shu tarzda (passiv) o'rganiladi va o'zlashtiriladi. Boshqacha aytganda, ularning ma'nosi o'qiganda xotiraga tushadi. Eslangan ushbu so'zlar yana unutilaveradi. Bu so'zlarni faollashtirib ham bo'lmaydi: ular og'zaki nutqqa ko'chmaydi.

So'zlarning kishi nutqida faol yoki nafaoligini metodist olim R.Yo'ldoshev o'zining "O'zbek tili darslarida o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtirish" nomli maqolasida [1] "tayyorlamoq" fe'lining ma'nodoshlari (hozirlamoq, shaylamoq, chog'lamoq, muhayyo qilmoq, taxt qilmoq, taraddud ko'rmoq, tadorik ko'rmoq) misolida yaqqol ko'rsatib bergan. Tayyorlamoq fe'lidan til egalari so'zlashuv nutqida ishlatish darajasida foydalanadilar, ma'nodoshlarini esa asosan o'qib yoki eshitib tushunish darajasida biladilar. Bundan shunday xulosa chiqarish zarurki, passiv so'zlarning hammasini ham majburan faollashtirib bo'lmaydi. Lingvistik jihatdan o'zi so'zlashuvga xos bo'lib, hali passiv o'zlashgan so'zlarni o'quvchi nutqida faollashtirish mumkin. Demak, ona tili darslarida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish deganda so'zlashuvga xos so'zlarni faol, kitobiy nutqqa xoslarini passiv darajada o'rgatish, yozma (ijodiy) nutq o'stirish munosabati bilan passivlarini ham imkon qadar faollashtirib borish yo'li tanlanishi darkor. So'z boyligining miqdoriy ko'rsatkichlari faol va nafaol so'zlarga nisbatan hisoblab chiqilishi masalaga yana ham oydinlik kiritishi



mumkin. Maqola muallifining ta'kidlashicha, 9-sinf o'quvchisi 8-10 ming so'zni faol darajada bilsa, yana 5-10 ming atrofidagi so'zni passiv egallashi mumkin.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'qish yo'nalishidagi lug'at ishlari ham o'ziga xos tashkil etilishi kerak. Matnda qat'iy bir mantiqiy izchillik, bog'lanishlilik, bayondagi mukammallikni ta'minlovchi leksik birliklar ishtirok etadi. O'quvchi matnda qo'llangan so'zlarning ma'nosini oson o'zlashtirsalar-da, ularni qanday o'qish kerakligi masalasida ba'zan o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'ladilar.

Nutqni tinglab tushunish uchun zarur bo'ladigan so'z boyligi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida nutqni tinglab tushunishga o'rgatish yo'nalishida ish olib borganda ham so'zlashuv uslubi qoidalariga rioya qilish zaruriyati mavjud. Eshittiriladigan matn, orfografik talaffuz qilinmasligi, aksincha, orfoepik me'yorlarga amal qilib ovozlantirilishi kerak. To'g'ri, eshittirilayotgan matn badiiy asardan parcha bo'lsa, undagi leksik birliklar (kitobiy so'zlar) so'zlashuv uslubiga ko'ra so'zlashuvga xos so'zlar bilan almashtirilmaydi, ma'nodoshlar ham neytral ma'nodoshga o'zgartirilmaydi, boricha talaffuz qilinadi. O'quvchi retseptiv nutq shaklida idrok etadigan matnlarda qo'llangan so'zlarning aksariyat qismini passiv tushuna oladi. Ana shu tushuna olish metodist olimlarni chalg'itadi, xato o'ylashiga sababchi bo'ladi. Ular o'quvchining nutqni tinglab tushunish bilan bog'liq so'z boyligiga tayangan holda nutq o'stirishni shu darajada boshlash kerak deb o'ylaydilar. Vaholanki, bu so'z boyligi bilan so'zlash (gapirish) so'z boyligini mutlaqo tenglashtirib bo'lmaydi.

M.F.Fozilovning tadqiqot ishida [2] badiiy asarni tinglab tushunish xususiyatlari haqida bildirgan ayrim fikrlarini keltiramiz: «Nutqni tinglab tushunish va badiiy asarni o'qib tushunish uchun katta miqdordagi so'z boyligi va til bilimiga ega bo'lish lozim. Shubhasiz, ularda nofaol birliklarning ulushi ko'proq bo'ladi. O'quvchilarda bunday zahira darsdan-darsga, sinfdan-sinfga ortib boradi» (45-b.). «Notanish so'zlar ba'zan asar mazmunini to'g'ri tushunishga monelik ko'rsatadi» (64-b.). «Tinglab tushunish – psixologik jarayon. Bu jarayonning asosiy xususiyati tinglash jarayonida asarda tasvirlangan real voqelikni, odamlarning xatti-harakatlarini, voqea-hodisalar sodir bo'layotgan makon va zamonni, asar qahramonlarining qiyofasini tasavvurida jonlantirish harakatlari amalga oshadi. U ba'zan asar bo'yicha sohib yuborilgan tasvirlar – badiiy so'z ko'magida yaratilgan adabiy qahramonni o'zicha tasavvur qilishga va o'zining ushbu tasavvuriga aniqlik kiritib borishga harakat qiladi. Ayonki, matn mazmuni asta-sekin, izchil anglanadi, asar qismlari davomida tiniqlashib boradi» (71-b.).

Shuni ham hisobga olish kerakki, o'quvchi nutqni tinglayotgan paytda ayrim notanish so'zlar tufayli ayrim gaplar mazmunini tushuna olmasligi mumkin. Bunday vaziyatda uning shu so'zni lug'atga qarab bilib olish imkoniyati bo'lmaydi.

So'zlash (gapirish) uchun xizmat qiladigan so'z boyligi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish: so'zlash (gapirish) malakasining leksik xususiyatlari so'zlashuv uslubi talablari bilan belgilanadi. So'zlashuv uslubiga ko'ra faol so'zlar qo'llanadi. Bu so'zlar orasida neytral uslubdagi so'zlarga nisbatan nutqiy sinonimlar uchrab turadi. «Sinonimlar o'zaro nutqiy xoslanishi jihatidan farqlanib tursa, nutqiy sinonimlar (...) deyiladi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra so'zlari o'zaro anglatgan ma'nolari jihatidan deyarli bir xil, ammo nutqiy xoslanishi jihatidan farqli. Bulardan "yuz" so'zining ishlatilishi nutq ko'rinishlari bo'yicha chegaralanmagan, "bet, aft" bashara so'zlari esa asosan so'zlashuv nutqida, "chehra" so'zi esa asosan badiiy nutqda ishlatiladi» [3]. Ma'lum bo'lishicha, so'zlashuv nutqiga xos so'zlarning ayrimlari barcha uslublarda qo'llanadigan so'zlar bilan nutqiy ma'nodoshlik hosil qiladi. O'qituvchi ayni so'zlashuv nutqiga xos so'zlarni ko'rsatib borishi kerakki, o'quvchilar ularni kitobiy nutqqa olib kirishning uslubiy xatoni yuzaga keltirishini bilishlari lozim.

O'quvchilar o'z nutqida jonli so'zlashuvda so'zlar qanday talaffuz qilinsa, shunday talaffuz qilishga harakat qiladilar. Afsuski, o'qituvchi adabiy tilda gapirish kerak deb, orfografik talaffuzni talab etadilar. Bu noto'g'ri. O'quvchilar adabiy so'zlashuv uslubida gapirishlari kerak.

So'zlashuv nutqiga doir so'z boyligini oshirish nutqda faol leksik birliklar asosida amalga oshiriladi. Lekin bunday birliklar o'quvchilar nutqida birdaniga faollashmaydi, buning uchun ham uzluksiz mashqlar zarur.

So'z ijtimoiy hodisa. Shunday bo'lgach, u adabiy tilning qonun-qoidalari bilan uslubiy qo'llanishlarini tartibga soladi. Zero, har bir millat tilida so'z ishlatish borasida adabiy tilga moslashtirilishi lozim bo'lgan shevalar va boshqa holatlarga (jargon va b.) xos so'zlar va so'z shakllari mavjud bo'lishidan tashqari, uslubiy xoslanish ham bor. Tilshunoslikda nutq uslublari quyidagicha tasnif qilingan: so'zlashuv uslubi, badiiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, rasmiy-idoraviy uslub. Har bir uslub ayrim so'zlarning shu uslubga xoslanishi bilan ajralib turadi. Masalan, so'zlashuv uslubida ilmiy, rasmiy-idoraviy uslublarga xos ayrim so'zlar qo'llanmasligi, bu uslubda ayrim so'zlar orfoepiya me'yorlariga rioya qilgan holda talaffuz qilinishi, imlosidan farq qilishi ma'lum. O'quv fanlararo integrasiyadan tashqari, uslublararo ichki integrasiya ham ona tili va o'qish



savodxonligi darslarida ona tili ta'limi mazmunidagi o'ziga xoslikni ifoda etib, metodika fanining innovasion yo'nalishiga ishora qiladi.

Yozma nutq jarayonida so'z boyligi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida yozish (yozma nutq) yo'nalishidagi lug'at ishlari, so'z qo'llash malakasini hosil qilish ustidagi ishlar tinglab tushunish, o'qish bilan tenglashmaydi, balki yozma nutqqa xos so'z boyligi so'zlashuv uslubi so'z boyligidan ancha kamraq, tinglab tushunish va o'qishnikidan yana ham kamroq bo'ladi: biror mavzuda uch-to'rtta gap yozishi kerak bo'lgan o'quvchi fikr bayon qilish uchun zarur so'zlarni topolmay qoladi, buning ustiga u bir qator amallarni (so'z zni eslash, uni to'g'ri yozish – imlosi, u bilan birikadigan navbatdagi so'z zni eslash, ikki so'z zni o'zaro bog'lash, shu tariqa gaplarni shakllantirish) ham bajarishi kerak bo'ladi. Buni o'quvchilarning o'qilgan matn mazmunini qayta hikoya qilishi yoki shu mazmunda o'z so'zlarini bayon qilishi bilan, matn mavzusida 3-4 gap yozishidagi farq misolida yaqqol ko'rish mumkin. O'quvchi so'zlaganda gaplar miqdori ko'p bo'ladi, yozganda bazo'r bir necha gapdan iborat bo'ladi.

Xullas, yuqorida aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning so'z boyligi shunchaki oshirilmaydi, balki nutqiy faoliyat turlari bo'yicha lug'at ishlari rejalashtiriladi va o'rgatish ishlari tashkil qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Йўлдошев Р. Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларни янги сўзлар билан таништириш // Тил ва адабиёт таълими. – 1992. - 5-6-сон. – Б. 40-42.
2. Фозилова М.Ф. Адабиёт дарсларида адабий нутқий компетенцияларни шакллантириш методикаси (насрий асарлар мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2022. – 141 б.
3. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Лексикология. Фонетика. Морфология. Педагогика институтлари филология факультетларининг сиртки бўлим студентлари учун қўлланма. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – 31-б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishda nutqiy faoliyat turlari, so'z zahirasining faol va nafaol bo'lib shakllanish sabablari va ularning ona tili va o'qish savodxonligi darslarida shakllantirishning nazariy va metodik jihatlari kabi masalalar yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются такие вопросы, как виды речевой деятельности при пополнении словарного запаса младших школьников, причины формирования словарного запаса как активного, так и неактивного, а также теоретические и методические аспекты их формирования на уроках родного языка и читательской грамотности.

SUMMARY

This article describes issues such as the types of speech activity when replenishing the vocabulary of younger schoolchildren, the reasons for the formation of vocabulary, both active and inactive, as well as the theoretical and methodological aspects of their formation in the lessons of their native language and reading literacy.